

**YURTIMIZDA YOSH AVLOD TA'LIM-TARBIYASIGA E'TIBOR VA
YARATILGAN IMKONIYATLAR**

**IN OUR COUNTRY, ATTENTION IS PAID TO THE EDUCATION OF THE
YOUNG GENERATION AND THE OPPORTUNITIES CREATED**

**В НАШЕЙ СТРАНЕ УДЕЛЯЕТСЯ ВНИМАНИЕ ОБРАЗОВАНИЮ
МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ И СОЗДАВАЕМЫМ ВОЗМОЖНОСТЯМ.**

Kamoliddinov Farruxjon Farxodovich

Alfraganus universiteti Tibbiyot fakulteti

Stomatologiya yo'nalishi 5-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada yurtimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga e'tibor va yaratilgan imkoniyatlar yoritilgan bo'lib, unda yangilanish hamda samaradorlik haqida fikr-mulohazalar keltirilgan.*

Ushbu maqolani yozishdan maqsad: yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun sharoitlar yaratish, ularning iqtidorini yanada rivojlantirish, ta'limda ishtirokini ta'minlash bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri ekanligini yoritish.

Natija: yosh avlod qalbida shukronalik hissi rivojlantirish, ularni yurt kelajagi uchun qayg'uradigan inson bo'lishiga undash.

Kalit so'zlar: *ta'lim tizimi, innavatsion texnologiya, kelajak, imkoniyat, fikr.*

Abstract: *This scientific article highlights the attention and opportunities created for the education of the young generation in our country, and comments on renewal and efficiency are given.*

The purpose of writing this article is to clarify that creating conditions for the education of young people, further developing their talent, and ensuring their participation in education is one of the priority tasks of today.

The result: to develop a sense of gratitude in the hearts of the young generation, to encourage them to become people who care for the future of the country.

Keywords: *educational system, innovative technology, future, opportunity, idea.*


Аннотация: *В данной научной статье освещены внимание и возможности, созданные для воспитания молодого поколения в нашей стране, а также даны комментарии по обновлению и эффективности.*

Цель написания данной статьи – уточнить, что создание условий для обучения молодежи, дальнейшего развития ее таланта, обеспечения ее участия в образовании является одной из приоритетных задач современности.

Результат: развить чувство благодарности в сердцах молодого поколения, побудить их стать людьми, которым небезразлично будущее страны.

Ключевые слова: образовательная система, инновационные технологии, будущее, возможности, идея...

Har bir jamiyat kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayoti va turmush darajasi fan va ma'daniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Fan va ma'daniyat rivojlanishi ta'lim-tarbiya ishlarining qay darajada olib borilishidan kelib chiqadi. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi. Bugun vatanimiz shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir paytda, yurtimizda barcha sohalarda o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ta'lim tizimida yil sayin rivojlanib borayotgan



axborotkommunikatsiya texnologiyalari va uning ta'lim tizimiga kirib kelishi, ta'lim jarayonini sifat va mazmun jihatdan yanada yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qilayotganligi barchamizga ma'lum. Ayniqsa, ta'lim jarayonini mazmunli tashkil etish uchun zamonaviy texnik vositalardan foydalanish fikrimizning yaqqol dalilidir. Xususan, ham innavatsion texnologiyalardan foydalanilgan holda

ta'lim tashkil etishni bugungi davr taqazo etmoqda. Eng muhimi esa har bir o'quvchi yurt kelajagini yaratar ekan, zamon ruhiga mos axborot kommunikatsiyalari va texnologiyalaridan xabardor bo'lishi lozim. Zero, o'quvchilarning har tamonlama yetuk inson bo'lib yetishishimizda yurtimizda yaratilgan sharoitlar, imkoniyatlar, yosh avloga e'tiborning namunasidir. Bugungi kun o'quvchisi faqatgina darslikdan foydalanib qolmasdan, har bir dars uchun o'zi ham kichik kashfiyotlar yaratishi kerak. Barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdek mas'uliyatli vazifa har jabhada ko'zga tashlangan bo'lib, ta'lim mazmunini takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni belgilab olish, zamon bilan hamnafas bo'lib, ta'limning zamonaviy texnologiyalarini joriy etgan holda o'quvchilarda o'z faniga qiziqish uyg'otishlari, hurmat-ehtirom tuyg'ularini shakllantirib borishlari talab etiladi. Ta'limda ijobiy natijalarga erishish, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilim asoslarini puxta o'rgatish, ularda dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini kengaytirish, ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish borasidagi ta'limiy tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan belgilanadi. Bu borada ta'lim-tarbiya jarayoniga ko'plab o'zgartirishlar kiritilmoqda, yangicha yondashuvlar tadbiiq etilmoqda. Shulardan biri, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib dars o'tishda mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga erishish hisoblanadi. Keyingi yillarda xalq ta'limida bo'layotgan islohotlar mazmuni tizimda yangilanish va samaradorlikni ko'rsatyapti. Shunday ekan xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim sohasida qabul qilinayotgan qaror va farmoyishlar muassasalar

faoliyatini yanada rivojlantirish va boyitishga xizmat qilibgina qolmay, balki tizimda takomillashuvni va samaradorlikni ham oshirmoqda. Shu bilan birga, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ishiga olgan beshta muhim tashabbusni amaliyotga tatbiq etish ulg'ayib kelayotgan o'spirin iqtidorini yanada rivojlantirish, ularning faol ishtirokini ta'minlash bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilanmoqda. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim.

Chindan ham, ushbu maqsad yo'lida yoshlarimiz o'z oldiga katta marralarni qo'yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko'mak berish – barchaning ustuvor vazifasiga aylangan. O'sib kelayotgan va ta'lim-tarbiya saboqlarini egallayotgan biz o'quvchilar xalqimizning asriy orzu umidlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanishimiz lozim. XXI asrda insoniyat oldida turgan muammolar ilmiy tafakkur va ilmiy kashfiyotlarga asoslangan innovatsion yechimlarni talab etishi shubhasiz. Jamiyatga iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilishda zarur bo'ladigan innovatsiyalarni rivojlantiradigan va ilmiy tadqiqotlar olib boradigan ilm egalari, olimlar kerakligini taqazo etmoqda. Shu jihatdan Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Sharq donishmandlari aytganidek "Eng katta boylik – bu aql zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir". Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak. Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi". Hadisda "Beshikdan to qabrgacha ilm o'rgan" deb, ilm har narsadan yuqori ekanligi, hech narsa undan yuqori bo'la olmasligi ta'kidlangan. Demak, islom ta'limotida bilim eng oliy maqsad – dunyoni bilish uchun zarur deb uqtirilgan. Bilim dunyoni bilish bilan bahramand bo'lib qolmay, shaxs ma'naviyatini boyitishda ahamiyatli hisoblangan. Yoshlarning ijodiy, intellektual va tadbirkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish, innovatsion g'oyalar, loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish, iqtidorli talabalar, yosh olimlar va tadbirkorlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, yosh iqtidor sohiblarini innovatsion tadbirkorlik sohasiga tizimli jalb qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirish, shu jumladan: iqtidorli

yoshlarni ishbilarmonlar va yetakchi olimlar bilan hamkorlikda ish yuritishi uchun yagona tizim yaratish va shu asosda ilm-fan sohasida yosh kadrlar yetishtirish tizimining uzviyligini ta'minlash; ishlab chiqarish sohasiga yuqori texnologiyalarni tatbiq etish va ilmiy tadqiqotlarga yoshlarni jalb etish hamda ilmiy -texnik va innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun platformalar yaratish talab etilmoqda. Mustaqillik yillarida oliy ta'lim tizimida ham olib borilgan izchil islohatlar natijasida mamlakatimizda bir qator chet el universitetlarining filiallari ochildi. Jumladan, Buyuk Britaniyaning Xalqaro Vestminster universiteti, Toshkent shahrida M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, M.Gupkin nomidagi Rossiya neft va gaz davlat universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Italiyaning Turin politexnika universiteti filiallari ish boshladi.



Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yurtimizda biz yoshlarga berilyotgan imkoniyatdan to'g'ri foydalangan holda kuchli bilimli kadrlar bo'lib yetishishimiz zarur. Zero,ki,davlatimiz kelajagi -bu biz bu bugungi yoshlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev , "Oliy Majlisga murojaatnomasi"dan, 2020-yil 29-dekabr.
2. Ishmuhammedov M, Yo'ldashev Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T-1998-yil.
- 3.Qo'shimcha ma'lumot uchun elektron manzillar:www.eduportal.uz